

**JAMIYAT XAVFSIZLIGIGA TAHDID SOLUVCHI
KIBERJINOYATLARNING TUSHUNCHASI, KELIB CHIQUISH TARIXI
VA RIVOJLANISH TENDENSIYASI**

Saidov Abdunabi Vali o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti
Elektron pochta: saidovabdunabi2000@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisda kiberjinoyatlarning huquqiy tushunchasi, kelib chiqish tarixi va hozirgi rivojlanish tendensiyalari tahlil qilinadi. Kiberjinoyatlarning jamiyat xavfsizligiga solayotgan tahdidlari o'rganilgan bo'lib, xalqaro hamda milliy huquqiy asoslar ko'rib chiqiladi. Mamlakatimizda raqamli transformatsiya jarayonida kiberxavfsizlikni ta'minlashning dolzarb masalalari yoritiladi.

Kalit so'zlar: kiberjinoyat, kiberxavfsizlik, axborot xavfsizligi, raqamli tahdid, xalqaro huquq, jinoyat-huquqiy himoya.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning jadal sur'atda rivojlanishi va internetning hayotimizning barcha sohalariga kirib borishi nafaqat ulkan imkoniyatlar, balki yangi turdagi tahdidlarni ham keltirib chiqarmoqda. Kiberjinoyatlar shular jumlasidan bo'lib, ular jamiyat xavfsizligiga jiddiy zarar yetkazuvchi hodisaga aylangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalarini rivojlantirish bilan birga, kiberxavfsizlikni ta'minlash masalasi ham davlatimizning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi"¹. Ushbu kontekstda kiberjinoyatlarni kompleks o'rganish va ularga qarshi samarali huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston" rivojlanish strategiyasiga bag' shlangan nutqi. — Toshkent, 2022.

Kiberjinoyat (ingl. cybercrime) — bu kompyuter tizimlari, tarmoqlar yoki raqamli ma'lumotlardan foydalangan holda amalga oshiriladigan noqonuniy harakatlar majmuasi deyish mumkin. O'zbekiston Respublikasining "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, "kiberjinoyatchilik — axborotni egallash, uni o'zgartirish, yo'q qilish yoki axborot tizimlari va resurslarini ishdan chiqarish maqsadida kibermakonda dasturiy ta'minot va texnik vositalardan foydalanilgan holda amalga oshiriladigan jinoyatlar yig'indisi" hisoblanadi².

Xalqaro huquqda esa 2001-yilda "Kiberjinoyatchilik to'g'risida"gi Budapesht Konvensiyasi qabu qilingan bo'lib, ushbu hujjatga asosan kiberjinoyatlar quyidagilarga bo'linadi: internet va boshqa kompyuter tarmoqlari orqali sodir etilgan jinoyatlar, mualliflik huquqlarining buzilishi, kompyuter firibgarligi, bolalar pornografiyasi va tarmoq xavfsizligini buzish bilan bog'liq jinoyatlar³.

O'zbek huquqshunos olimi B.A.Tursunov esa kiberjinoyatni "axborot muhitida amalga oshiriladigan, jinoyat-huquqiy jihatdan taqiqlangan va jamiyatga zararli bo'lgan qasdli xatti-harakatlar" deb ta'riflaydi⁴. Ushbu ta'rif kiberjinoyatning huquqiy tabiatini to'liq aks ettiradi.

Kiberjinoyatlarning tarixi XX asrning 60-yillarida kompyuter texnologiyalarining paydo bo'lishi bilan boshlangan. Ushbu tarixiy rivojlanishni quyidagi bosqichlarga bo'lish mumkin:

² O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 15-aprelda qabul qilingan "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi 764-sonli Qonuni // lex.uz - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

³ Budapest Convention on Cybercrime. Council of Europe. ETS No.185. — Budapest, 23 November 2001.

⁴ Tursunov B.A. Kiberjinoyatchilikka qarshi kurashning huquqiy asoslari. — Toshkent: TDYU nashriyoti, 2021. — 180 b.



Birinchi bosqich (1960–1980-yillar) — “Hacker madaniyati” davri. Aynan shu davrda kompyuter tizimlari va dasturlarga ruxsatsiz kirish hollari ilk bor qayd etilgan. 1971-yilda “Creeper” nomli birinchi kompyuter virusi yaratilgan bo‘lib, u “ARPANET” tarmog‘ida tarqalgan. Bu davr jinoyatlarining asosiy motivi moliyaviy manfaat emas, balki texnologik qiziquvchanlik edi.

Ikkinchi bosqich (1980–2000-yillar) — Internetning keng tarqalishi bilan kiberjinoyatlar ommaviy tus oldi. 1988-yilda Robert Morris tomonidan yaratilgan “Morris qurt” (Morris Worm) internetga ulangan minglab kompyuterlarni ishdan chiqardi va bu voqea kiberjinoyatchilik tarixida dastlabki yirik hujum sifatida qayd etildi.

Uchinchi bosqich (2000-yillardan bugungi kunga qadar) — Kiberjinoyatlar milliy va xalqaro xavfsizlikka jiddiy tahdid manbayiga aylandi. Interpol ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda kiberjinoyatlardan jahon iqtisodiyotiga yetkazilgan zarar 8 trln. AQSH dollaridan oshdi⁵. Davlat infratuzilmalariga, moliya tizimlariga va shaxsiy ma’lumotlarga qarshi hujumlar tobora murakkablashib bormoqda.

Hozirgi kunda kiberjinoyatlarning bir qancha muhim rivojlanish tendensiyalari kuzatilmoqda. **Birinchidan**, sun’iy intellekt va mashinaviy o‘qitish texnologiyalarining jinoyatchilar tomonidan faol qo‘llanilishi kiberhujumlar samaradorligini oshirmoqda. **Ikkinchidan**, to‘lov dasturlari (ransomware) va ijtimoiy muhandislik (social engineering) usullari yordamida amalga oshiriladigan

⁵ Interpol. Cybercrime: A Threat to All. Global Report 2023. — Lyon: Interpol, 2023. — P.12–18.

kiberhujumlar soni yildan-yilga ko'paymoqda. **Uchinchidan**, "narsalar internet" (IoT) qurilmalariga qarshi hujumlar yangi turdagi zaifliklarni yuzaga keltirmoqda⁶.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida kiberjinoyatlar bo'yicha alohida bob yoki bo'lim ajratilmagan. Kodeksning XX¹-bobi Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar deb nomlangan bo'lib, 278¹-278⁹-moddalarini o'z ichiga oladi⁷.

Biroq texnologiyalarning tez rivojlanishi tufayli mavjud huquqiy normalarni muntazam ravishda takomillashtirish zaruriyati mavjud.

Shuningdek, Kodeksning VI bo'limida Jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar keltirib o'tilgan bo'lsada, Kodeksda qaysi jinoyatlar jamiyat xavfsizligiga tahdid soluvchi jinoyatlar yoki jamiyat xavfsizligiga tahdid soluvchi kiberjinoyatlar hisoblanishi aniq ko'rsatib o'tilmagan.

Ammo, Kodeksning 2-moddasiga asosan Jinoyat kodeksining vazifalari shaxsni, uning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini, mulkni, tabiiy muhitni, tinchlikni, insoniyat xavfsizligini jinoiy tajovuzlardan qo'riqlash, shuningdek jinoyatlarning oldini olish, fuqarolarni respublika Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya qilish ruhida tarbiyalashdan iboratdir.

Kiberjinoyatlarning jamiyat xavfsizligiga tahdid sifatida bir qancha o'ziga xos xususiyatlari mavjud: transchegaraviy xarakterga egaligi; asosan anonym tarzda amalga oshirilishi; jinoyat izlarini yashirish osonligi; eng asosiysi muayyan

⁶ Mirzayev X.N., Qodirov A.S. Raqamli iqtisodiyotda axborot xavfsizligi muammolari // Huquq va jamiyat. — 2023. — №2. — 45–52-b.

⁷ O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi // lex.uz - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

shaxs yoki shaxslar guruhiga emas balki undan ham katta miqyosda zarar yetkazish yetkazishga olib kelishi; moddiy va ma'naviy zararni bir vaqtda keltirib chiqarishi.

Kiberjinoyatlar — bu bugungi raqamli sivilizatsiyaning eng keskin muammolaridan biri bo'lib, u shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligiga kompleks tahdid soladi. Jamiyat xavfsizligiga tahdid soluvchi kiberjinoyatlar esa kibermakonda muayyan shaxs yoki shaxslar guruhidan ham kengroq masshtabdagi shaxslarning xavfsizligiga tahdidi soluvchi jinoyatlar hisoblanadi. Ushbu jinoyatlarning to'g'ri huquqiy ta'riflanishi, tarixiy rivojlanishini anglab yetish va yangi tendensiyalarni o'z vaqtida aniqlash samarali kiberxavfsizlik siyosatini ishlab chiqish uchun zaruriy shart hisoblanadi. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bilan parallel ravishda kiberjinoyatchilikka qarshi kurashning huquqiy va institutsional mexanizmlarini mustahkamlash ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Yangi O'zbekiston” rivojlanish strategiyasiga bag'ishlangan nutqi. — Toshkent, 2022.
2. O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 15-aprelda qabul qilingan “Kiberxavfsizlik to'g'risida'gi 764-sonli Qonuni // lex.uz - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
3. Budapest Convention on Cybercrime. Council of Europe. ETS No.185. — Budapest, 23 November 2001.



4. Tursunov B.A. Kiberjinoyatchilikka qarshi kurashning huquqiy asoslari. — Toshkent: TDYuU nashriyoti, 2021. — 180 b.
5. Interpol. Cybercrime: A Threat to All. Global Report 2023. — Lyon: Interpol, 2023. — P.12–18.
6. Mirzayev X.N., Qodirov A.S. Raqamli iqtisodiyotda axborot xavfsizligi muammolari // Huquq va jamiyat. — 2023. — №2. — 45–52-b.
7. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi // lex.uz - O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.